

## RAQAMLI MUHIT VA BOLALAR IJTIMOIYLASHUVI

**Usmonova Madinaxon Mansurjon qizi**

**Qo‘qon Universiteti. Ta‘lim fakulteti.**

**Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.20094785>**

**Annotatsiya:** Ushbu Tezes raqamli pedagogikaning bolalik davriga ta‘siri, zamonaviy texnologiyalarning ta‘lim jarayonida tutgan o‘rni va bu jarayonda bolalarning ijtimoiylashuvi haqida

**Kalit so‘zlar:** Raqamli pedagogika, bolalik, raqamli ta‘lim muhiti, hissiy tarbiya. Ijtimoiylashuv, muhit.

21-asrda ta‘lim sohasining raqamlashtirilishi jarayoni butun dunyoda, jumladan O‘zbekistonda ham faol kechmoqda. Raqamli pedagogika o‘quv jarayonini zamonaviy texnologiyalar orqali samarali tashkil etish mumkin. Texnologiyalar bolalar uchun faqat o‘qitish vositasi emas, balki tarbiyaviy muhitning bir qismi sifatida qo‘llanilishi kerak. Bunda mehr, individual yondashuv va jonli muloqot elementlarini saqlab qolish muhimdir.

Jahon miqyosida raqamli transformatsiya tezlashgani sari yosh avlodning ta‘lim muhiti ham tubdan o‘zgarimoqda. Bugungi A avlodning (Gen-Alpha) kundalik hayoti, axborotni qabul qilish uslubi, muloqot madaniyati va qadriyatlar tizimi katta darajada raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va algoritmlar ta‘sirida shakllanyapti. Shuning uchun hozirgi yoshlar ta‘limidagi muammolarni faqat an‘anaviy omillar bilan tushuntirish yetarli emas: ularning ildizi ko‘p hollarda raqamli muhitning imkoniyatlari va xatarlari bilan chambarchas bog‘liq.

Shu bilan birga bugungi kundagi raqamli texnologiyalar davrida bolalarning ijtimoiylashuvi ham kata ahamiyat kasb etadi. Bolalar o‘zlariga chat bot yoki ai yordamchilar topib kata bo‘layotgan bir paytda ularni tengdoshlar bilan birga o‘ynashga, jamoada ishlashga, jamiyat normalarini anglashga o‘rgatishimiz kerak. Albatta raqamli texnologiyalar bir tarafda ta‘lim jarayonida ham va hayotning ko‘plab jabhalarida bizga yordam beradi, lekin yosh avlodni o‘ziga qaram qilib olayapti. Buni oldini olish uchun maktabgacha yoshdagi bolalarga yangicha metodlar orqali mashg‘ulotga qiziqishlarini oshirish, mashg‘ulotlarni doim bir xil sharoitda o‘tilmasligi lozim.

Umuman olganda, raqamli muhit sharoitida ta‘limning tabiati tubdan o‘zgardi: agar an‘anaviy tarbiyada axborot va ta‘sir manbai asosan o‘qituvchi va ota-ona bo‘lgan bo‘lsa, bugun yoshlar ko‘p manbali, algoritmlar boshqarayotgan mediamakonda shakllanmoqda. Shuning uchun nasihat va tashqi nazoratga tayanadigan klassik model A avlod ehtiyojlarini to‘liq qondirolmaydi.

Shu bilan birga, A avlod faqat tez idrok qiluvchi emas, balki faol ishtirok va tajriba orqali o‘rganishga ehtiyoj sezuvchi avloddir. Ular passiv tinglashdan ko‘ra interaktiv, o‘yin, simulyatsiya, muammoli vaziyat va loyiha asosida o‘rganishni samaraliroq deb biladi. Frontiers va boshqa ta‘limga oid zamonaviy tadqiqotlar A avlodda “learning by doing” (bajarish orqali o‘rganish) modeli kuchli ekani, shuningdek metakognitiv strategiyalar va gamifikatsiya ularda motivatsiyani oshirishini ko‘rsatadi.

**Xulosa.** Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvi jarayonida sun‘iy intellekt va gadjetlar bilan ishlash madaniyatini shakllantirish, ularni jamoaviy loyihalarga jalb qilish va emotsional intellektni asrash ta‘limning ustuvor vazifasi bo‘lishi kerak.

**Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. (Takomillashtirilgan ikkinchi nashr). – Toshkent: Maktabgacha ta’lim vazirligi, 2022.
2. F. Qodirova, Sh. Toshpo‘latova, M. A‘zamova. “Maktabgacha pedagogika”. – T.: “Ma’naviyat”, 2013.
3. U.M. Xalikova. “Maktabgacha ta’limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish metodikasi”. – T.: 2022.